# Termiz shahar IIBda yangi tayinlov amalga oshirildi




Termiz shahar IIBda yangi tayinlov amalga oshirildi

Bugun, 26 iyul kuni Termiz shahar IIBda boʻlib oʻtgan yigʻilishda ichki ishlar vazirining tegishli buyrugʻi bilan tayinlov amalga oshirildi.

Podpolkovnik Nurullayev Elbek Abduqodirovich Termiz shahar ichki ishlar boshqarmasi boshligʻi lavozimiga tayinlandi. Tayinlovga qadar Elbek Nurullayev Denov tumani IIB boshligʻi lavozimida faoliyat yuritgan.

Yigʻilishda, Surxondaryo viloyati IIB boshligʻi Abduvoxid Ismoilov, shahar hokimi Isroil Xudoyberdiyev, sektor rahbarlari, viloyat IIB boshligʻi oʻrinbosarlari, sohaviy xizmat rahbarlari, Termiz shahar IIB xodimlari ishtirok etishdi. Surxondaryo viloyati IIB boshligʻi tomonidan, Termiz shahrida jinoyatchilik va xuquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish choralarini kuchaytirish va bu borada keng jamoatchilik bilan hamkorlikda ishlarni amalga oshirish yuzasidan aniq vazifalar belgilab berildi.

Image not found or type unknown

Image not found or type unknown

Image not found or type unknown

